









Universitetning bakalavr bosqichiga ko‘zi ojiz insonlarni o‘qishga qabul qilish tartibi



Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen ko‘zi ojiz o‘quvchilarni oliy ta’limning bakalavr bosqichiga o‘qishga kirish tartibi haqida bilib olasan.
	**Oliy ta’lim** – bu sen maktab, kollej yoki litseyni tugatganingdan keyin universitet yoki institutda qaysidir sohani egallash uchun o‘qishing.
	Oliy ta’limning: • bakalavr • magistratura • doktorantura • aspirantura kabi bosqichlari bor.



	Bakalavr bosqichida sen 4 yil o‘qiysan.
	Ko‘zi ojiz o‘quvchilar ro‘yxatiga kiradigan insonlar: ● maxsus maktab-internatlarida 11-sinfni tugatgan, ko‘zi ojizlar uchun berilgan diplomi bor insonlar ● nogironligi bor insonlar uchun moslashtirilgan kasb-hunar kollejlarini tugatgan, ko‘zi ojizlar uchun berilgan diplomi bor insonlar ● 9 yillik ko‘zi ojizlar maxsus maktab-internatini va 3 yillik kasb-hunar kollejini tugatgan ko‘zi ojiz insonlar uchun berilgan diplomi bor insonlar.
	11-sinf yoki kollej, litsey diplomini olgan, ko‘z bo‘yicha birinchi guruh nogironlik hujjati bor insonlar ham **ko‘zi ojiz o‘quvchilar ro‘yxatiga kiritilgan.**





	Universitetlarga hujjat topshirish har yili 5-iyundan 25-iyungacha davom etadi.
	O‘quvchilarni universitetlarga qabul komissiyalari ro‘yxatdan o‘tkazadi.
	Ko‘zi ojiz o‘quvchilar boshqa o‘quvchilardek bakalavr bosqichiga hujjatlarni: ● my.gov.uz internet manzili ● my.uzbmb.uz sayti orqali topshiradilar.
	my.gov.uz va my.uzbmb.uz internet manzili orqali hujjat topshirish ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor insonlar uchun **bepul.**
	Hujjat topshirishda ko‘zi ojiz o‘quvchilar nogironlik hujjatining **seriyasi** va **raqamini** internet manzilga kiritishi kerak.



	Ijtimoiy himoya milliy agentligi har yili 1-iyungacha ko‘zi ojiz insonlarning nogironlik guruhini aniq ko‘rsatib ma’lumotlarini to‘plashi kerak.
	Ijtimoiy himoya milliy agentligi ko‘zi ojiz insonlarning ma’lumotlari Bilim va malakalarni baholash agentligining axborot tizimida ham ko‘rinishini nazorat qilishi kerak.
	Bilim va malakalarni baholash agentligining axborot tizimida ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor insonlarning ma’lumotlari ko‘rinishi internet orqali tez va oson hujjat topshirishga yordam beradi.
	Har yili edu.uz internet manzilida universitetlardagi yo‘nalishlarga kirish imtihonlarini qaysi fanlardan topshirish kerakligi e’lon qilinadi.
	**Imtihon topshiriladigan fanlarni** Vazirlar Mahkamasiga qarashli **davlat test komissiyasi** tasdiqlaydi.




	Qonun hujjatlari va fanlarga qarab **universitetlar** ko‘zi ojiz o‘quvchilarni kirish imtihonlari tartibini **tuzadi.**
	Universitetlarning **uslubiy kengashi** ko‘zi ojiz o‘quvchilarni kirish imtihonlari tartibini **tasdiqlaydi.**
	Dasturda: ● ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun imtihon fanlari ● ko‘zi ojiz o‘quvchilar bilimiga qo‘yiladigan talablar **belgilanadi.**
	Dasturda: ● imtihonlarni tashkil etadigan komissiya va unda ishtirok etadigan insonlar ● imtihon natijalaridan norozi o‘quvchilar uchun, **apellyatsiyaga topshirish** tartibi belgilanadi.


	Apellyatsiyaga topshirish – bu o‘quvchi imtihon natijalaridan norozi bo‘lganda, javoblarini qayta tekshirishga berish.
	O‘qishga hujjat topshirgan ko‘zi ojiz o‘quvchilar haqidagi ma’lumotlar **universitetga** kelib tushadi.
	Universitetlar o‘quvchi haqidagi ma’lumotlarni o‘rganadi.
	O‘quvchi ko‘zi ojiz bo‘lsa, universitet bu o‘quvchi bilan telefon orqali bog‘lanib, imtihon bo‘ladigan vaqt haqida ma’lumot beradi.
	Agar o‘quvchi bilan bog‘lanib bo‘lmasa unga sms orqali xabar yuboriladi.

	Universitetlarda o‘qishga qabul qilishni sifatli o‘tkazish uchun **qabul komissiyalari** 26-iyulgacha tuziladi.
	Ko‘zi ojiz o‘quvchilar kirish imtihonlarida qatnashish uchun o‘zlari bilan : ● pasport ● tugatgan kasb-hunar kolleji yoki maktab diplomining asl nusxasini olib kelishi kerak.
	Kirish imtihonlarida ko‘zi ojiz o‘quvchilarga har bir fan bo‘yicha bilimlarini baholash uchun savollar yozilgan varaq beriladi.
	Imtihonda: ● qabul komissiyasi ● imtihon olinayotgan fan bo‘yicha o‘qituvchilar ● ko‘zi ojizlar jamiyati vakili ● nogironlar jamiyatidan vakil **qatnashadi.**

	Kirish imtihonlarini tashkil qilish tartibiga ko‘ra ko‘zi ojiz o‘quvchilarga qabul komissiyasi tasdiqlagan **biletlar** beriladi.
	**Bilet** – bu imtihon savollari yozilgan qog‘oz.
	Imtihon vaqtida biletdagi savollar ko‘zi ojiz o‘quvchilarga **o‘qib beriladi.**
	Imtihon vaqtida ko‘zi ojiz o‘quvchi biletdagi savollarga tayyorlanishi uchun **vaqt beriladi.**
	Imtihon vaqtida ko‘zi ojiz o‘quvchi savollarni Brayl yozuvida yozib olishi mumkin.

	Imtihon vaqtida ko‘zi ojiz o‘quvchi savollarga **javoblarni** Brayl yozuvida yozib olishi va o‘qib berishi mumkin.
	Ko‘zi ojiz o‘quvchi imtihon savollariga og‘zaki javob beradi.
	Har bir ko‘zi ojiz o‘quvchining savollarga javob berishi video kameraga yozib olinadi.
	Javoblar kameraga yozilsa: ● javoblarni tekshirish ● baholash ● e’tiroz bo‘lganda o‘quvchining javoblarini qayta ko‘rib chiqishga yordam beradi.

	Kirish imtihonlari tugaganidan keyin ko‘zi ojiz o‘quvchilar to‘plagan ballariga qarab o‘qishga kiradi yoki kirolmaydi.
	Ko‘zi ojiz o‘quvchilar va imtihon natijalari haqidagi ma’lumotlar 27-iyulgacha: ● Davlat komissiyasiga ● Davlat test markaziga topshiriladi.
	Kirish imtihonlaridan yaxshi ball to‘plagan o‘quvchilar Davlat komissiyasi qarori bilan alohida ajratilgan davlat granti bilan o‘qishga qabul qilinadi.
	● Balli tizimda baholanganda — eng yuqori ballning 55 foizidan ko‘p ball olgan o‘quvchilar universitetga kirgan hisoblanadi.

	Baholash tizimida baholanganda — 3, 4 yoki 5 baho olgan o‘quvchilar universitetga kirgan hisoblanadi.